

ANVAR OBIDJON IJODIDAGI YANGICHA BADIY SHAKLLAR

Tashova Dilorom,

IV Buxoro akademik litseyi o'qituvchisi,

f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida qator yangicha badiiy shakllarda ijod qilindi. Bu badiiy shakllarning yuzaga kelishiga o'ziga xos sabablar bor. Bu badiiy shakllardan ayrimlarining genezisi xalq og'zaki ijodiga borib taqalsa, ba'zilari mumtoz lirik janrlar asosida paydo bo'lgan. Quyidagi maqolada ijodkor Anvar Obidjonning istiqlol yillarida yaratgan yangicha badiiy shakllari, uning o'ziga xos xususiyatlari va genezisi xususida so'z borgan.

Kalif so'zlar: ignabarg, badiiy shakl, maqol, aforizm, uchchanoq, uchpaxsa, so'taruboiy, to'rtqavatlilar, ikkiqat.

XX asrning so'nggi choragi XXI asr boshlari o'zbek she'riyatida shakl va mazmun o'zgarishlari sezilarli ijodiy jarayonga aylandi. "Natijada she'riyatimiz asrlar davomida amal qilib kelingan poetik kanonlarni inkor qilib, o'zgargan mazmun-mohiyatga mos yangi shakl bobida izlanishlar davriga kirdi. Bu izlanishlarning eng muhim va she'riyatimizda tub yangilanishga olib kelgan yo'nalishlari sifatida she'rning ritmik-intonatsion sathida, poetik ifoda yo'sini va subyektiv tashkillanishdagi o'zgarishlarni ko'rsatish mumkin"²⁹. Binobarin, istiqlol davri o'zbek she'riyatida yangi fikr aytish maqsadida o'ziga xos shakllar yuzaga keldi. Ijodkorlarning estetik qarashlari natijasida dunyoga kelgan bunday badiiy shakllar lirikaning rang-barangligini ta'minladi. Ijodkorlarning izlanishlari natijasida o'zbek she'riyatida birlik, ikkilik, uchlik, oltilik poetik shakllari yuzaga keldi, sonet janri rivojlandi. Ular o'zbek mumtoz adabiyoti va jahon adabiyoti yutuqlari bilan boyitilgan holda zamonaviy shoirlar ijodidan o'rin oldi.

Ko'rinadiki, keyingi yillar she'riyatida bir misrali she'rlarning yaratilishi tasodifiy emas. Uning genezisi xalq og'zaki ijodi va o'zbek mumtoz adabiyoti sahifalariga borib tutashadi. Bugungi she'riyatimizdagi birliklarni mumtoz adabiyotimizdagi she'riy shakllarning an'anaviy davomi deyish mumkin. Unga xos bo'lgan muhim xususiyat aforistik mazmunga egaligi bilan xarakterlanadi. Zero, adabiyotshunos Q.Yulchiyev to'g'ri ta'kidlaganiday: "Ignabarg she'rning birinchi manbasi ijodkorning real hayotga ongli

²⁹ Хамдам У. Янги ўзбек шеърляти: Илмий мақолалар. – Тошкент: Adib, 2012. – Б.274.

munosabatidir. Ba'zi ignabarglar bevosita shoirning yozmoqchi bo'lgan butun bir she'rlarining shoh satri sifatida dunyoga kelgan"³⁰.

O'zbek adabiyotida "ignabarg" sarlavhasi ostida ijod qilgan Anvar Obidjon birliklarida xususida adabiyotshunos Q.Yulchiyev izlanar ekan, maqol va ignabarglar, ya'ni birliklarni qiyoslab shunday yozadi: "Ignabarg she'rlarda voqelikka lirik munosabat mavjud, maqol, matal, parema, aforizmlarda esa "lirik men" bo'lmaydi, muallif "men"i voqelikdan chetda bo'ladi. Shu tariqa mavzu doirasi, individual kechinmalar ham sezilmaydi"³¹. Haqiqatan, maqolning muallifi aniq emasligi, og'zaki ijod janri ekanligi, aforizm chuqur mazmunli, aniq va ixcham shaklli hikmatli gap ekanligi kabi belgilar ignabarglarning ulardan tubdan farq qilishini ko'rsatadi. Chunki zamonaviy adabiyotimizdagi birlik shaklidagi she'rlarda lirik kechinma ustunlik qiladi. Maqol va aforizmlarda esa axloqiy-didaktik mazmun yetakchi o'ringa chiqadi.

Ma'lumki, "ignabarglar" deb nomlanuvchi yangi badiiy shakl Anvar Obidjon shakliy-uslubiy izlanishlarining natijasidir. Ba'zilarini "O'rta barmoq", "O'sht" deb nomlaydi. Haqiqatan, birliklar maqollar kabi ibratomuz fikrlar va ramziy obrazlarga, yumorga boy. Binobarin, "It – sayoq, lek qimor o'ynamas" birligida it va qimor obrazi orqali bugungi hayotimizdagi noqisliklarga ishora bor. Ya'ni it sayoq yuradi, biroq inson qiyofasidagi hayvonlar qimor o'ynaydi. Bu borada shoir shunday insonlardan itni ustun qo'yadi. "Ro'molcha bor, Dezdemonaga yo'q". Bunda Dezdemonaga ishora bor, talmeh qo'llangan. Ro'molcha – badiiy detal. "Otello" tragediyasida ro'molcha tufayli Otello sevgilisi Dezdemonani bo'g'ib o'ldirib qo'yadi. Shoir shu voqelikka ishora qilar ekan, rashk qilishga asos bo'lgan ro'molcha bor, biroq Dezdemonaga o'xshagan ayollar yo'qligini aytadi. "Uylanganmish koptokka tarvuz". Bunda koptok va tarvuz obrazlari orqali poetik fikr badiiy ifoda etilgan. Dumaloq bo'lgan bu ikki narsa faqat shaklan mutanosib, biroq mazmunan boshqa-boshqa narsalardir. Bundagi ramz shundan iboratki, hayotda birlashayotgan ikki inson bir-biriga munosib emas. "Kalda taroq, ko'rda chiroq bor". Mantiqan xalqimizning "Kalning nimasi bor, temir tarog'i bor" maqolini eslatuvchi bu misrada kal, taroq, ko'r, chiroq obrazlarini parallel holatda keltirish orqali maqoldagi mazmun kuchaytirilgan. Ya'ni taroq kalga, chiroq esa ko'rga kerak emas. "Sol pashshani! Gap poylayapti!". Bu birlikda ham ramziy ma'no bor. Ya'ni pashsha quloqning ostiga kelib g'o'ng'illaydi. Buni shoir "gap poylayapti" ifodasi orqali ochib bergan. "G'o'ng'illash" va "gap

³⁰ Юлчиев Қ. Ўзбек шеърлятида бирлик ва учлик поэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2017. – Б. 23.

³¹ Юлчиев Қ. Ўзбек шеърлятида бирлик ва учлик поэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2017. – Б. 26.

poylash” ifodalari mantiqan mosdir.

Anvar Obidjon – tabiatan yumorist shoir. U hayotda kuzatgan turli nobop holatlarni, qusurlarni ramz va timsollar vositasida yumorga yo‘g‘irib badiiy aks ettiradi. Qisqa va lo‘nda fikrlarni jam etgan birliklar shu jihatdan bugungi she‘riyatimizdagi novatorlik hisoblanadi. “Qiyneysan-da insofli bo‘lsam”. Bunda kinoya bor. Binobarin, insofli, diyonatli odamlarga yashash hamisha qiyin bo‘lgan. Yuqoridagi misrada shunga ishora bor. “It egasin qopmas, pul qopar” misrasi ham “It o‘z egasini qopadi” xalq maqoliga teskari tuzilgan. Ya‘ni pul, boylik uchun yashaydigan insonlar uchun aytilgan.

Zamonaviy ikkiliklarda ham hayotiy qarashlar jamlangan. Xususan, A.Obidjon “ikkiqatlar”, “fardlar” deb nomlagan badiiy shakl namunalari kinoya, yumor ruhi ustunlik qiladi. Biroq shoir o‘zi yaratgan badiiy shaklni “ikkiqat” deb nomlashi u qadar to‘g‘ri emas. Chunki bu so‘z evfemizm bo‘lib, homilador ayollarga nisbatan ishlatiladi. Shu jihatdan bunday nomlanishga qo‘shilib bo‘lmaydi. Biz buni o‘z ma‘nosida tushungan holda ikki misrada ikkita qat bor tarzidagi talqin yo‘lidan bordik. Ikkinchisi ko‘proq yumoristik, shu bilan birga falsafiy mazmunga ega. Shoir ikki qatorni o‘zaro qofiyalashtirgan va aruziy ohangga solishga intilgan, shu bois fard deyish mumkin. Ammo “ikkiqatlar” barmoq vaznida yozilgan, a-a tarzida qofiyalangan, haqiqatda bu ikkiliklar fikr tug‘ilishiga sabab bo‘ladi.

Har balodan asrayman seni

Yo‘q qilmasang bas, do‘stim meni³².

Bu ikkilikda kinoya ohangi va mazmuni bor. Shoir qo‘shtirnoq ichidagi do‘stlarga murojaat etadi. Xalqimizda “Bitta dushmaning bo‘lsa ham ko‘p” degan maqol mazmuniga mos keladi.

O‘lsak bizda o‘lar manmanlik,

Dushmanlarda esa – dushmanlik. (28-b.)

Bu ikkilikda aforistik fikr ifoda etilgan. Manmanlik, kibr Avloniyda yomon xulqlar qatorida tilga olinadi. Shoirning aytishicha, manmanlik ayrim kishilarning qoniga singib ketgan, qachonki u o‘lsa bu qusur barham topadi. Qolaversa, dushmanlardagi dushmanlikni ham faqat o‘lim yo‘qotishi mumkin. Bu achchiq haqiqat hayotda o‘z isbotini topgan.

She‘r – Alpomish, g‘azal – Barchinoy,

Biron-birin yomonlama, hoy! (29-b.)

Shoir bu ikkilikda doston qahramonlari Alpomish va Barchinoyga ishora qilib, talmeh san‘atini yaratgan. Demak, Alpomish – she‘r, Barchinoy esa g‘azaldir. Ya‘ni Alpomish va Barchinoyni yomonlab bo‘lmagani kabi she‘r

³² Обиджон А. Безгакшамол-2. – Т.: Шарқ, 2003. – Б.27.

va g'azalni ham yomonlab, birini biridan kamsitib bo'lmaydi.

Anvar Obidjonning "uchchanoqlar"i ham badiiy shaklning yangi ko'rinishidir. Adabiyotshunos N.Jumaxo'janing yozishicha: "Anvar Obidjonning kitobida "Uchchanoqlar" deb nomlangan turkum ham bor... Uchliklar yapon she'riyatida mustaqil janr hisoblanadi"³³. Olimning aytishicha, yapon uchliklari yo oniy mavzuda, yo lahzalik ruhiy holatni, yo teran falsafani ifodalashi lozim. Anvar Obidjon uchliklari ixcham, tabiiy, aniq falsafiy xulosalarga, hayotiy kuzatishlarga boy she'rlardir.

"Uchchanoq" termini milliy mohiyatga ega. Chanoq ko'sakda bo'ladi, paxta ko'saklarida uchchanoq uchraydi. Xalq uni alohida e'zozlaydi. Bolalar orasida uchchanoqni olgan o'rtog'iga berish o'yini bor. Uchchanoqni olgan bola asrab yurishi lozim. Bergan kishi "Uchchanoq" deganda topib bera olsa, yutqazmaydi, topib bera olmasa uchchanoqni bergan bolaning shartlarini bajarishga majbur. Shoir xalqdagi mashhur uchchanoq so'zini olib, badiiy shaklning nomi sifatida qo'llagan. Zero, chanoqning uch qirrasini bo'lgani kabi she'r ham uch misradan iborat.

Anvar Obidjonning uchliklari yapon xokkulariga shaklan o'xshaydi, mazmunan milliy hayot manzaralarini aks ettiradi. Shu bois shoir mumtoz va dunyo she'riyatidagi an'analarni davom ettirib, o'ziga xos, takrorlanmas uchlik – uchchanoqlarni yaratdi.

*Ko'pdir amalning turi
Amaldorning eng zo'ri
Faqat ochiq oladi³⁴.*

Bunda shoir poraxo'rlik haqida gapiryapti. Ya'ni eng zo'r amaldor porani ochiq-oshkora oladi, demoqchi shoir.

Uchchanoqlarda ham bolalik ifoda etilgan o'rinlar bor:

*Nega buncha xafasiz?
Xafa bo'lmang topasiz,
O'tkan kundan boshqasin.*

Shoir bolalarbop she'r yozadi, bolalarga tavsiya qiladi, ammo she'rdagi ko'p ma'nolilik kishilarni o'ylantirib qo'yadi. Hatto kattalar ham shoirning jumboq she'rlaridagi fikrni o'qish uchun uzoq o'ylanishlariga to'g'ri keladi. Inson goh arzimas narsalarga xafa bo'ladi. Nimalarnidir yo'qotganiga kuyunadi, ammo o'tgan kuniga kuyunmaydi. Holbuki, o'tgan kundan boshqa hammasini topish mumkin. So'ng kitobxon qo'shib qo'yadi: dunyodan o'tgan insonni ham topib bo'lmaydi. Kitobxon shoir fikrlari hikmatomuz bo'lsa-da, nisbiy ekanligini o'ylaydi, demak, kitobxon ham fikrlay

³³ Jumaxo'jayev N. Anvar Obidjonning "Bezgak shamol" kitobiga taqriz. // Yoshlik. – Toshkent, 1986. № 11. – B. 204.

³⁴ Обиджон А. Сайланма. – Т.: Академнашр, 2019. – Б.137.

boshlaydi. Anvar Obidjonning uchchanoqlari insonni, ayni damda, bolalarni ham o'ylashga undaydi. Bu shoirning yutug'idir:

Anvar Obidjon bir o'rinda uchligini "uchpaxsa" deb ataydi:

Uy yonmoqda beomon,

Sohibi yurar shodon.

*Kuymadi deb soqolim*³⁵.

Bizningcha, "uch paxsa" atamasi o'zini oqlamagan. Anvar Obidjon uchliklari "Uchchanoqlar" deb atalgani ma'qul. Ko'rinadiki, Anvar Obidjon uchchanoqlarida an'ana davom ettirilgan va an'analardan chekinilgan jihatlar bor.

Anvar Obidjon istiqloq yillarida yangi badiiy shakllar yaratish uchun jiddiy izlandi. Shulardan biri "so'taruboiylar" nomi ostida e'lon qilingan she'rlardir. Bu so'z "so'ta + ruboiy" qismlaridan tarkib topgan qo'shma o'tdir. So'ta – makkajo'xorining donli yoki doni olingandan keyin qolgan o'zagi, to'pmevasini anglatadi.³⁶ Sheva tilida esa "kaltak" ma'nosida keladi. Shular inobatga olinsa, Anvar Obidjonning bunday she'rlarida hajviy-tanqidiy ruh ustuvorlik qilishi kuzatiladi. Shu o'rinda yana bir mulohaza: shoirning yangi badiiy shakl izlanishlarini ko'rish mumkin. Ruboiyning o'zbek mumtoz she'riyatidagi yuksak janr ekanligi inobatga olinsa, unga "so'ta" qismi qo'shilishini oqlab bo'lmaydi. Shunga qaramay, bunday shakldagi she'rlarning tagma'nolarini ochib berishga harakat qildik:

Dutor chertay ding'ir-ding'ir,

O'yna yorim, qing'ir-sing'ir.

Bir kunda bir ichib kelsam,

*Qilma hadeb ming'ir-ming'ir*³⁷.

Shakli a-a-b-a tarzida ruboiy kabi qofiyalangan. Aslida hajviy-yumoristik mazmun "ding'ir-ding'ir", "qing'ir-sing'ir", "ming'ir-ming'ir" kabi salbiy bo'yoqqa ega bo'lgan takror taqlid so'zlarga yuklangan. Aslida ichkilik biror insonga yaxshilik keltirmaydi. Shoir bu satrlari orqali ichgan erga hech nima ta'sir qilmaydi, demoqchi.

Kel, oshna, qahringdan uzat,

Yov qo'psa, jahlingdan uzat.

Ortsa lek johilligim,

Axliqqa aqildingdan uzat. (25-b.)

Bu misralarda axloqiy mazmun yetakchilik qiladi. "Qahr", "jah", "aql" so'zlari ohangdosh bo'lishi bilan birga, shoir aytmoqchi bo'lgan poetik fikrni

³⁵ Obidjon A. Bezgak shamol -2. – T.: Шарқ, 2003. – B.53.

³⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 620.

³⁷ Obidjon A. Bezgak shamol -2. – T.: Шарқ, 2003. – B.24.

ham ochib berishga xizmat qilgan. Ya'ni yov qopgan vaqtda jahll kerak bo'ladi. Lekin johillik ortsa, aqlga ehtiyoj yuzaga keladi. Shoir "axliq" degan yangi so'z qo'llagan. Bunday so'z lug'atda yo'q. Matn mazmunidan kelib chiqib, "aqllilik" so'zining qisqargan shakli deyish mumkin. Ko'rinadiki, bu so'taruboiyda ham aqliy-intellektual fikr kuchi ustuvorlik qiladi.

Yuqorida tahlil etganimiz A.Obidjonning "so'taruboiylar" nomi ostida bergan she'rlari mumtoz ohanglarni ham yodga soladi. Shu bilan birga hajviy ruh ustunligi ham ko'zga tashlanadi. A.Obidjon tabiatan yumorga, kulgiga moyil bo'lgani uchun shunday she'rlariga ham hazil, kinoya mazmunini singdirgan.

Anvar Obidjon individual ijodiy izlanishlarida "to'rtqavatlilar" nomi bilan bergan to'rlik she'rlari ham muhim o'rin tutadi. Bu she'rlar ham mohiyatan so'taruboiylarga yaqin. Ya'ni ularda ham hajviy-yumoristik ruh yetakchi qiladi. Faqat "qavat" so'zi ma'nosidan kelib chiqilsa, poetik ma'no qavatma-qavat yuzaga chiqadi. Ularning aksariyati a-a-b-a shaklida qofiyalangan.

*Mo'mintoy qulga bu – farmonli dunyo,
Orzumand bandaga – armonli dunyo.
Fahmdor kishig'a – qamchili kazzob,
Yallaboz anqovga – garmonli dunyo³⁸.*

Shoir bunda dunyoga ta'rif beradi. Qavatma-qavat ma'no zalvori ortib boradi: mo'mintoy qul – oddiy kishilarga bu dunyo farmonli, ular buyruq ostida yashaydi. Orzuli kishiga esa armonlarga to'lgan, fahmdor – tushungan kishiga yolg'onlar bilan do'ngan, yallaboz anqovga garmonli, ya'ni faqat hoy-u havas bilan yashaydigan dunyo tarzida beriladi. Shoir aytmoqchi, bu yorug' olamda har kim har xil yashaydi.

*O'ylagil qo'rqadim do'qingdan men qachon,
Chaqchayib burningni qilma baqlajon.
Sher uchun obro' emas pashsha quvish,
E raqib, davrimda mayli saqla jon. (23-b.)*

Bu satrlarda hajv-yumor ruhi yetakchilik qiladi. Raqibga murojaat tarzida yozilgan to'rlikda bir necha obraz bor (baqlajon, sher, pashsha). Uning burni baqlajonga o'xshatilgan. Raqibning do'q urishini esa sherning pashshani quvishiga tenglashtirgan.

Umuman, shoir o'zining yangicha badiiy shakllarida turli mavzularga qo'l uradi. Ignabarglarda aforistik ruh yetakchilik qilsa, uchchanoqlar jahon adabiyotidagi xokku janrini esga soladi. Ikkiqatlar shaklan fardga yaqin tursa-

³⁸ Obidjon A. Bezgak shamol – 2. – T.: IIIapκ, 2003. – B.22.

da, mazmun jihatdan undan farq qiladi. Sotaruboiylar ruboiy janrini esga solidi, biroq qofiyalanishi va vazni nuqtayi nazardan ulardan farq qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Хамдам У. Янги ўзбек шеърияти: Илмий мақолалар. – Тошкент: Adib, 2012.
2. Навоий асарлари луғати. –Тошкент: Ғ.Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.
4. Jumaxo`jayev N. Anvar Obidjonning "Bezgak shamol" kitobiga taqriz. // Yoshlik. – Toshkent, 1986.
5. Обиджон А. Сайланма. – Т.: Академнашр, 2019.
6. Obidjon A. Bezgak shamol – 2. – Т.: Шарқ, 2003.
7. Юлчиев Қ. Ўзбек шеъриятида бирлик ва учлик поэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2017.